

ИЖТИМОЙИ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

N°1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвоҳид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решаёт задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счёт внедрения достижений научных исследований учёных и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухраҳон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

1. Сеитов Азамат, Рубенян Ангелина ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КУЛЬТУРНЫХ БРЕНДОВ ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ КЫРГЫЗСТАНА С УЧЕТОМ ФАКТОРА УЗБЕКСКОЙ ДИАСПОРЫ.....	5
2. Alikariyev Nuriddin OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI....	12
3. Sabirova Umida OLIY TA'LIM SIFATINI BAHOLASHDA SOTSIOLOGIK MONITORINGNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI.....	21
4. Burxanov Xusniddin MILLIY SAYTLARNING MODERNIZATSIYALASHUV VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	30
5. Dulanbo'yeva Oygul, Xolov Abduqodir AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA KITOB MUTOLAAASI IJTIMOY DETERMINANTLARINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI.....	37
6. Tolipov Abdug'affor MDH MAMLAKATLARIDA VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKLAR IJTIMOIY PROFILAKTIKASINING AMALGA OSHIRISH AMALIYOTI.....	44
7. Alikariyeva A'loxon RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA OLIY TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH MUAMMOLARI.....	53
8. Tajieva Dilnoza XOTIN-QIZLAR IJTIMOY FAOLLIGINI "INSON-JAMIYAT-DAVLAT" HAMKORLIGIDA OSHIRISH.....	61
9. Nosirova Marguba THE IMPORTANCE OF NEW SKILLS IN IMPROVING WOMEN'S EMPLOYMENT AND ENTREPRENEURSHIP (UNTIL 2030).....	68
10. Kirgizbayev Turgun O'ZBEKISTON OMMAVIY DIPLOMATIYASI MARKAZIY OSIYODA ISHONCHNI O'RNATISH VOSITASI SIFATIDA.....	74
11. Asanov Xodjaxmet KOGNITIV FANNING SUN'IY INTELLEKT RIVOJIGA TA'SIRIDA IJTIMOY SIYOSATNING O'RNI.....	80
12. Kirgizbayev Turgun MARKAZIY OSIYODA MA'NAVY-SIYOSIY BARQAROR MUHITNI TA'MINLASHNING AHAMIYATI.....	92

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Kirgizbayev Turgun,

Yunus Radjabiy nomidagi

O'zbek milliy musiqa va san'at instituti

mustaqil izlanuvchisi

e-mail: mila.kan.92@mail.ru

MARKAZIY OSIYODA MA'NAVIY-SIYOSIY BARQAROR MUHITNI TA'MINLASHNING AHAMIYATI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18840017>

ANNOTASIYA

Maqolada Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlarni keng integratsiyasi, geografik joylashuvi, mintaqada azaliy milliy qadriyatlar, boy ma'naviy meros, ma'naviy barqaror muhitni rivojlantirish imkoniyatlari siyosiy tahlil qilingan. Markaziy Osiyoning ma'naviy-siyosiy barqarorlashuvida iqtisodiy omilning bevosita yuqori darajadagi salmog'i, iqtisodiy integratsiya konsepsiyasi mintaqa davlatlarini bir-biri bilan uzviy hamkorlik qilish tendensiyalari, Siyosiy-iqtisodiy barqaror muhit qaror topishida xavfsizlik masalasi, xavfsizlik masalasi butun mintaqaning bir tan-u bir jon bo'lib, birgalikda harakati evaziga vujudga kelishi asoslab berilgan. Shuningdek, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida mintaqa davlatlarning BMT, YEXHT, MDH va SHHT kabi xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli, hamkorlik munosabatlarini yulga qo'yish zaruriyati siyosiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ma'naviy-siyosiy barqarorlik, milliy qadriyatlar, ma'naviy meros, xavfsizlik, mintaqaviy hamkorlik, pragmatik va faol tashqi siyosat.

Киргизбаев Тургун,

Соискатель Узбекского национального института

музыки и искусства имени Юнуса Раджаби

e-mail: mila.kan.92@mail.ru

ВАЖНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ДУХОВНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется широкая интеграция стран Центральноазиатского региона, их географическое положение, древние национальные ценности региона, богатое духовное наследие и возможности для развития духовно-стабильной среды. Рассматривается прямая роль экономического фактора в духовно-политической стабилизации Центральной Азии, концепция экономической интеграции, тенденции стран региона к сотрудничеству друг с другом, вопрос безопасности в формировании стабильной политико-экономической среды, а также положение о том, что обеспечение безопасности является результатом консолидированных действий государств региона как целостного социально-политического пространства. Кроме того, с политической точки зрения анализируется необходимость

установления странами региона взаимовыгодных, основанных на сотрудничестве отношений с международными организациями, такими как ООН, ОБСЕ, СНГ и ШОС, для обеспечения безопасности и стабильности в Центральной Азии.

Ключевые слова: духовно-политическая стабильность, национальные ценности, духовное наследие, безопасность, региональное сотрудничество, прагматичная и активная внешняя политика.

Kirgizbaev Turgun,
Independent researcher
Yunusa Radjabov of the Uzbek National Institute
of Music and Art
e-mail: mila.kan.92@mail.ru

THE IMPORTANCE OF ENSURING A SPIRITUAL AND POLITICAL STABILITY ENVIRONMENT IN CENTRAL ASIA

ABSTRACT

The article provides a political analysis of the broad integration of the states of the Central Asian region, their geographical location, and the presence of ancient national values, rich spiritual heritage, and the opportunities for developing a stable spiritual environment in the region. It substantiates the significant and direct role of the economic factor in achieving spiritual and political stability in Central Asia, emphasizing the concept of economic integration and the growing tendency of regional states toward close and interdependent cooperation. It is argued that the establishment of a stable political and economic environment is closely linked to security issues, which can only be ensured through the collective and unified efforts of all states in the region. Additionally, the article offers a political analysis of the necessity for Central Asian countries to develop mutually beneficial cooperative relations with international organizations such as the United Nations (UN), the Organization for Security and Co-operation in Europe (OSCE), the Commonwealth of Independent States (CIS), and the Shanghai Cooperation Organisation (SCO) in order to ensure security and stability in Central Asia.

Keywords: spiritual and political stability, national values, spiritual heritage, security, regional cooperation, pragmatic and proactive foreign policy.

KIRISH

XX asr dunyo siyosiy maydonida keskin ijobiy va salbiy jarayonlarning sodir bo'lganligi bilan insoniyat tarixida chuqur iz qoldirdi. Bu jarayonlardan biri davlatlarning siyosiy barqarorligini, taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qilgan bo'lsa, boshqasi dunyoda ulkan muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Ana shunday ijobiy jarayonlardan biri mintaqaviy hamkorlikning kuchayishi, mamlakatlarni o'z taqdirlarini o'zi mustaqil hal qilish hamda dunyo hamjamiyati bilan teng huquqli subyekt sifatida hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Mintaqaviy hamkorlik jarayonlari tom ma'noda dunyoda tinchlikni, tenglikni, taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qilib, yangi xalqaro tartibotning shakllanishiga imkoniyat tug'diradi.

METODOLOGIYA

Taniqli nemis olimi Karl Doych mintaqani turli yo'nalishda bog'lanadigan hududiy birlik sifatida talqin qilib, uchta asosiy belgisini qayd etadi.

1. Umumiy geografik yaqinlik.
2. Hamkorlikning doimiyligi va intensivligi.
3. Mintaqa tizimi haqidagi umumiy yondashuv [1].

Shvetsiyalik professor B.Xettne mintaqani ushbu jihatlari mavjudligini ta'kidlaydi:

- tabiiy chegaralar bilan cheklangan geografik va ekologik birlik (masalan, Yevropa Atlantikadan – Uralgacha);

- ijtimoiy tizim sifatida ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy tartibotning translokal munosabatlarda aks etishi;
- ichki yaxlitlikning mavjudligi, birdamlik yoki qismlar bilan genetik bog'liqlikning mavjudligi;
- xalqaro munosabatlarda alohida maqomga egaligi va tan olinishi [2].

Rossiyalik tadqiqotchilar A.A.Sergunin va L.Remkeldalar talqiniga muvofiq, mintaqa supertermin bo'lib, aholi, hudud, umumiy tarix, tabiiy sharoit va muammolarni yechish xarakterini o'z ichiga oladi [3].

ASOSIY QISM

Jahonda mintaqaviy hamkorlik dunyo mamlakatlari taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida umuminsoniy qadriyat darajasida amal qilib kelmoqda. Shuning bilan birga mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi turli ziddiyatlarning yechimi ham o'zaro manfaatlarni muvozanatlashtiruvchi hamkorlikni vujudga keltirish, uni izchillik bilan takomillashtirib borish bilan bog'liq. Jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlarni keng integratsiyaga kirishishga undamoqda. Ushbu keng qamrovli, umum tarixiy qadiryatlarga yo'g'irilgan uzoqni ko'zlagan konstruktiv, o'zaro manfaatli hamkorlik mintaqadagi barcha davlatlar manfaatiga birdek mos keladi. Shu nuqtayi nazardan, Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarining jahon hamjamiyatiga qo'shilishi, ilg'or davlatlar darajasiga yetish, xalqlarimiz orzu qilganidek birgalikda erkin va faravon jamiyat barpo etishni maqbul yo'llarini izlashi, milliy taraqqiyot modellarini ijtimoiy – siyosiy jihatdan tahlil etishi, hamda ilmiy-nazariy ahamiyatga ega xulosalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Markaziy Osiyo o'z taraqqiyotining yangi, tarixiy ahamiyatga molik bosqichiga qadam qo'ymoqda. Bugun biz chinakam birdamlik bosqichiga o'tyapmiz. Bizning mintaqamizda uzoq yillar davomida ilk bor birgalikda oldinga qarab borishimiz uchun poydevor bo'lib xizmat qilayotgan o'zaro ishonch, yaxshi qo'shnichilik va hurmat muhiti shakllanmoqda [4].

F.Tolipov mintaqaviy hamkorlik asoslarini mintaqamiz misolida o'rganib “Umumiy geografik makon, etnik jihatdan umumiy kelib chiqish, madaniyat va urf-odatlar yaqinligi kabi qadriyatlar birligi Markaziy Osiyoni hamkorligi uchun poydevor bo'ladi” [5], degan fikrni ilgani suradi.

Markaziy Osiyoning geografik joylashuvi jihatidan kollektiv xavfsizligi to'la ta'minlanmagan, ya'ni mojaroli masalalari saqlanib qolayotgan hudud hisoblanadi. Mintaqada bugungi kunda ham sobiq Ittifoq davridan meros bo'lib qolgan iqtisodiy-siyosiy, harbiy, transport, kommunikatsiya va ekologik muammolar oxirigacha o'z yechimini topmagan. Ushbu muammolar yechimini topishning eng muhim sharti mojaroli vaziyatlarni juda extiyotkorlik bilan oldini olish, mintaqada ichki va tashqi muvozanatni saqlash, mintaqaviy integratsiyalashuvni ta'minlash bilan barqaror rivojlanishga erishish mumkin.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasi sifatida barpo etilayotgan Yangi O'zbekistonni har jabxada dadil va jadallik bilan rivojlanishini ta'minlash orqali Markaziy Osiyo mintaqasida azaliy milliy qadriyatlarimiz, boy ma'naviy merosimizni inobatga olgan holda, ma'naviy barqaror muhitni rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. “Amaliy hamkorlikka tayyorlik va unga astoydil intilish, shuningdek, barcha Markaziy Osiyo mamlakatlarining umumiy kelajak uchun mas'uliyatni his etishi mintaqaning barqaror rivojlanishi va farovonligining mustahkam poydevori va kafolatidir” [6]. Markaziy Osiyo davlatlari halqaro huquqiy munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatida avvalo, yaxshi qo'shnichilik va eng asosiysi xalqlarimizni yanada yaqinlashish yo'lidagi orzu umidlarini hisobga olgan xolda, o'zaro manfaatli hamkorlik tamoyillari asosida barcha sohalarida mustahkam aloqalar o'rnatishi zarurligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi.

Markaziy Osiyo mintaqasi o'zining geosiyosiy, geoiqtisodiy va geostrategik ahamiyatga egaligi tufayli dunyodagi gegemon davlatlar diqqat markazida bo'lib kelgan. Bunda ikki omil: geostrategik sharoit va tabiiy resurslar mintaqaning muhim geoiqtisodiy va geosiyosiy ahamiyatini namoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining yettinchi ustivor yo'nalishida mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish ishlari amalga oshiriladi [7], – deb ta'kidlaganligi O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi qat'iy pozitsiyasini belgilaydi. Mintaqa davlatlari orasida O'zbekistonning BMT va boshqa dunyo hamjamiyati yig'ilishlarida berayotgan taklif va tavsiyalari asosida qabul qilinayotgan Rezolyutsiyalar mintaqada barqaror ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy muhit shakllanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekiston orzusi va uning asosida ishlab chiqarilgan strategiyada Markaziy Osiyodagi qo'shnilarimiz, butun jahon hamjamiyati, uzoq-yaqindagi davlatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik, tobora globallashib borayotgan bugungi dunyodagi muammolarni birgalikda hal qilish, eng rivojlangan mamlakatlar safiga kirishdek amaliy sa'y-harakatlar mujassam [8]. Davlatlar o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik, avvalo, mintaqaning jamiyat muhitida siyosiy-iqtisodiy barqarorlikning ta'minlashni, uning e'tiborga molik asosiy jihatlari, yo'naltiruvchi va boshqaruvchi kuchlari hamda ta'minot komponentlarini ijtimoiy-siyosiy tadqiq qilishni taqozo etadi. Mazkur jarayonda "jamiyatning ma'naviy- axloqiy muhiti murakkab ijtimoiy voqelik ekanligi, ushbu voqelik negizida shaxs – guruh (jamo) – jamiyat o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ma'naviy-axloqiy munosabatlar yotishi" [9], hisobga olish taraqqiyot yo'nalishini to'g'ri tanlash va oqilona tanlov kafolatini ta'minlaydi. "Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin [10].

Shuningdek, Markaziy Osiyoning ma'naviy-siyosiy barqarorlashuvida iqtisodiy omilning bevosita yuqori darajadagi salmog'iga ko'ra iqtisodiy integratsiya konsepsiyasi mintaq davlatlarini bir-biri bilan uzviy hamkorlik qilish tendensiyalarini belgilab beradi. Siyosiy-iqtisodiy barqaror muhit qaror topishida xavfsizlik masalasi birlamchi ahamiyat kasb etadi. Xavfsizlik masalasi bu nafaqat bir shaxs, bir jamiyat va bir davlatning, balki butun mintaqaning bir tan-u bir jon bo'lib, birgalikda harakati evaziga vujudga keladigan jarayondir. Bu haqida O'zbek halqida qadimdan shakllangan bir hikmatli ibora bor, yani **"Qo'shning tinch sen tinch"** bu iboraning naqadar to'g'ri ekanligini bugungi dunyoda bo'layotgan siyosiy jarayonlar ham isbotlab turibdi.

Xozirgi kunda jaxonda kechayotgan qator muammoli xolatlardan kelib chiqib ishonch bilan aytish mumkinki, mintaq xavfsizligini Markaziy Osiyo davlatlarining birortasi yakka holda to'liq ta'minlay olmaydi. Ushbu nozik va taxlikali vaziyatlardan kelib chiqqan xolda, mintaq xavfsizligi uchun umumiy bo'lgan radikallashuv, ekstremizm, terrorizm, separatizm, transmilliy jinoyatchilik kabi tahdid va xavflarga qarshi faqatgina hamkorlikda samarali natijalarga erishish mumkin.

Xavfsizlikka tahdidlarni "o'ziniki va o'zgalariniki" deb ajratishdan voz kechish, "yaxlit xavfsizlik" tamoyiliga amalda rioya qilish zarur [11].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ochiq va pragmatik tashqi siyosati natijasida Markaziy Osiyoda vaziyat o'zgarmoqda. Bu esa Markaziy Osiy xalqlarining internatsionallashuvi jarayonini tezlashtirmoqda. Tarixiy birlikni ta'minlash, bunda qadriyatlarni o'rganish, chuqur tahlil qilgan holda zamonaviy sharoitga moslashtirib, mintaq davlatlari o'z manfaatlari va maqsadlarini to'g'ri anglashi, Markaziy Osiyo mamlakatlarining milliy xavfsizligini ta'minlash tizimini samarali shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Bu yo'nalishda jahon tajribasidan foydalangan holda, zamonaviy uslublarni qo'llash orqali tarixiy va ma'naviy qadriyatlarning muhit xavfsizligini ta'minlovchi ijtimoiy asoslarini yanada mustahkam qilish maqsadga muvofiqdir.

Agar tarixga murojaat qilsak Markaziy Osiyoning qardosh halqlari asrlar davomida ijtimoiy-madaniy hamda siyosiy jihatdan yaxlit bolgan. Jumladan, ajdodlarimiz asrlar davomida yonma-yon yashab, bosqinchilarga qarshi birgalikda kurashib kelganlar. Bugun xalqlarimiz, yuksak yutuqlarni qo'lga kiritgan dunyo davlatlari tajribalari va imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda, Markaziy Osiyo davlatlari mintaqaviy yaxlitlikni vujudga keltirishlari zarur. Bunday yaxlitlik ishonchli

mintaqaviy hamkorlik orqali ro'yobga chiqib, mintaqani va unda joylashgan davlatlarning xavfsizligini, obro'-e'tiborini oshirishga hizmat qiladi hamda xalqaro maydonda yetakchilar qatoridan munosib ravishda, mustaxkam o'rin egallashiga imkon beradi.

Yaqin tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida qisman hamkorlik harakatlari bo'lgan. Bu harakatlarning misolida Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkilotini ham ko'rsatish mumkin. Bu tashkilot qachon, nima maqsadda tashkil etilgan edi va nima uchun bu harakatlar izchil hamda barqaror davom etmadi.

1991-yil 26-dekabr kuni SSSR Oliy Soveti Respublika Kengashi ittifoq tugatilgani haqida deklarasiya qabul qildi. Gorbachyov SSSR prezidenti lavozimidan ketganini e'lon qildi va shu tariqa 69 yil dunyoning ikkinchi qutbi sifatida yashab kelgan qudratli davlat parchalanib ketdi. Jahon xaritasida esa o'n beshta yangi mustaqil davlat paydo bo'ldi.

Bular qatorida Markaziy Osiy hududida mustaqillika erishgan, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston Respublikalarining o'sha vaqtdagi davlat rahbarlari, mintaqada siyosiy, savdo-iqtisodiy va gumanitar yo'nalishlarda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarni yumshatish va eng asosiysi azaldan qardosh bo'lgan xalqlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish, umumiy mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash masalalariga to'g'ri yechim topish maqsadida doimiy muloqotni yo'lga qo'ydilar.

1991-2016-yillarda bir necha bor maslahat va sammitlar doirasida quyidagi muhim bo'lgan uchrashdilar o'tkazildi:

- 1991-yil Olma-otada birinchi uchrashuv;
- 1993-yil Toshkentda ikkinchi uchrashuv;
- 1998-yil Ashxobodda uchinchi uchrashuv;
- 2001-yil Toshkentda To'rtinchi uchrashuv bo'lib o'tdi.

2001-yilga kelib ba'zi tashqi ta'sirlar natijasida, Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyati, Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkilotiga aylantirildi.

1991-2016-yillar davomida Markaziy Osiyo va MDH davlat rahbarlari turli sammit va yig'ilishlarda, jumladan, MDH Davlat rahbarlari kengashi majlislarida, shuningdek, turli formatdagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama uchrashuvlarda muntazam uchrashib muloqot qilib turdilar. Afsuski ushbu o'tkan vaqt davomida o'tkazib kelingan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining turli ko'rinishdagi uchrashuvlari, Markaziy Osiyo xalqlari uchun sezilarli darajadagi uzoq kutilgan natijalarni bermadi. Mintaqaning ba'zi davlatlari o'rtasida chegara darvozalariga mustaxkam qulflar osildi, ko'pgina chegara hududlari minalashtirildi va shu tariqa asirlar davomida birga yashab kelgan qardosh xalqlar o'rtasidagi rishtalar uzulib, bir-biridan yana qayta uzoqlashtirildi.

2016-yilda davlat boshiga O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoev kelishi bilanoq vaziyat tubdan o'zgardi. Mintaqa davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlari qayta tiklandi. Ushbu uchrashuvlardan kutilgan maqsad esa mintaqadagi iqtisodiy va siyosiy hamkorlik masalalarini jonlantirish yo'llarini muhokama qilishga qaratilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017-yil 10-noyabr kuni BMT shafeligida Samarqand shahrida o'tgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferensiyada, Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvini o'tkazish taklifini ilgari surdi.

Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligining yaqin tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, ular quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. Jumladan:

– birinchidan, XX asrning oxiri – XXI asrda jahon siyosiy xaritasida yuz bergan tub o'zgarishlar Markaziy Osiyoda ham keskin va beqaror o'zgarishlarga olib keldi. Markaziy Osiyo respublikalari mustaqillikka erishgach, mintaq va mintaq davlatlarining barqaror hayot kechirishlari va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yo'lida yangi mintaqaviy hamda global tahdidlar vujudga keldi. Bu tahdidlar – terrorizm, diniy ekstremizm, separatizm, narkotrafik, ekologik inqiroz va boshqa bir qancha omillar zanjiridan iborat. Ushbu tahdidlar mintaq davlatlarining birdamlik asosida va jahon hamjamiyatining yirik xalqaro tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirishni taqozo etmoqda;

– ikkinchidan, hozirgi zamon voqeligi Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari siyosiy istiqbolga erishgach o'zlariga xos va mos taraqqiyot, rivojlanish yo'lini tanlab olganliklaridan dalolat bermoqda. Shu bilan birga mintaqada davlatlari zamon talablaridan kelib chiqqan holda, ayniqsa, mintaqaviy hamda xalqaro xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash masalasida hamjihatlikda faoliyat ko'rsatmoqda. Bunday birdamlik ular tashqi siyosatining asosiy prinsiplari, Markaziy Osiyo miqyosida umumiy manfaatlar nuqtayi nazaridan xalqaro tashkilotlar bilan keng qamrovli hamkorlikni amalga oshirayotganlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda;

– uchinchidan, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida ushbu mintaqada davlatlarning BMT, YEXHT, MDH va SHHT kabi xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli, hamkorlik munosabatlarini yulga qo'yish zaruriyati kuchaymoqda. Bunday holat o'z navbatida davlatlararo va xalqlararo mojarolar kelib chiqishining oldini olishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligiga tahdidlar real tashqi xurujlarni bartaraf eta olishga qodirligi tufayli ularni barqaror taraqqiyotiga keng imkoniyatlar eshigini ochib beradi;

– to'rtinchidan, Mintaqaviy muammolarni hal etishda "O'zbekiston omili"ning o'rni va roli alohida ahamiyat kasb etadi.

"O'zbekiston omili" deganda O'zbekistonning:

a) mintaqada markazida joylashganligi;

b) mintaqadagi barcha davlatlar bilan chegaradoshligi va ularni hududiy jihatdan o'zaro bog'lab turganligi;

v) aholisi jihatdan kattaligi, harbiy qudratining mustahkamligi va bir qator strategik resurslarga boy ekanligi;

g) uning mintaqadagi muammolarni kelib chiqishi, uning oldini olish zarurligi masalalarida pragmatik qarashlari va bartaraf etishdagi amaliy faoliyatida yetakchiligi kabi imkoniyatlari bilan butun mintaqadagi muammolarni hal etishga o'tkazayotgan ta'siri tushuniladi.

XULOSA

Mintaqadagi muammolarni "O'zbekiston omili"dan samarali foydalanmasdan turib hal qilib bo'lmaydi. Bu bugungi kunning realligi hisoblanadi. Chunki, O'zbekistonning mintaqada markazida joylashganligi barcha davlatlar bilan chegaradoshligi va ularni o'zaro bog'lab turishi mintaqadagi hamma davlatlar kuchlarini umumiy yovuz kuchlarga qarshi uyushtirish imkonini ham beradi [12].

Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligi g'oyalari tarixi ham ancha uzoqqa borib taqaladi. Jumladan, XIX asrda shakllangan ziyoli ajdodlarimiz ilgari surgan turkiy zaminni birlashtirish g'oyasi, birinchi Prezidentimiz o'rta tashlagan "Turkiston – umumiy uyimiz" g'oyasi [13], Nursulton Nazarboyev tomonidan olg'a surilgan Yevroosiyo konfederatsiyasini shakllantirish g'oyalarini va Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Bitta tur – butun mintaqada" tamoyilini misol qilib keltirish mumkin.

Shavkat Mirziyoyev Prezident bo'lganidan so'ng birinchi o'rinda mamlakat tashqi siyosatida Markaziy Osiyo davlatlari ustuvor vazifaga aylandi. Ikki tomonlama va ko'ptomonlama muloqotlarning asosiy mavzusi – barcha sohalarida, xususan, iqtisodiy sohada hamkorlikni kuchaytirish bo'ldi.

O'zbekiston rahbari 2023-yil 17-20-sentyabr kunlari "S5+1" formatida ilk marta o'tkazilgan "Markaziy Osiyo – AQSH" sammiti doirasida Jo Bayden bilan uchrashdi. Shuningdek, BMT Bosh Assambleyasida nutq so'zlab, O'zbekistonning global masalalardagi pozitsiyasini bayon qildi. Shavkat Mirziyoyev tashrif davomida BMT, Yevropa ittifoqi, Jahon savdo tashkiloti, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi kabi xalqaro tashkilotlar rahbarlari hamda Amerikadagi ziyoli vatandoshlar bilan ham muloqot qildi. Tashrifdan oldin bo'lib o'tgan O'zbekiston – Amerika biznes-forumida 10 dan ortiq hujjat imzolandi.

Shuningdek, 2025 yil 4-aprel kuni Samarqand shahrida ilk bor Yevropa Ittifoqi – Markaziy Osiyo sammiti bo'lib o'tdi. Mazkur sammitda Markaziy Osiyo davlatlari va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlar va amaliy hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqildi, xalqaro va mintaqaviy siyosatning dolzarb jihatlari yuzasidan fikr almashildi. Investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish va tovar ayirboshlashni ko'paytirish, innovatsiyalar, "yashil" energetika, tog'-kon, qishloq xo'jaligi, transport, logistika va raqamlashtirish sohalarida qo'shma dastur va

kooperatsiya loyihalarini ilgari surish, madaniyat, turizm, fan, ta'lim va boshqa ustuvor yo'nalishlarda faol almashinuvlarni davom ettirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Uchrashuvda O'zbekiston muvozanat saqlashga harakat qilib, Rossiya, Xitoy, Turkiya, Afg'oniston, Pokiston, Hindiston kabi davlatlar bilan ijobiy munosabatda bo'lib kelmoqda.

Bugun Markaziy Osiyoni keng mintaqamizda yashayotgan barcha millat va xalqlar uchun yagona tinchlik, farovonlik va taraqqiyot makoniga aylantiradigan ushbu tarixiy sur'atni saqlab qolishimiz har qachongidan ham muhimdir [14].

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Богомолов Ю. Г., Гриняев С.Н., Небренчин С.М., Фомин А.Н. Водные ресурсы стран Центральной Азии в рыночных отношениях. – М.: 2007. – С.16.
2. Бжезинский З. Буюк шахмат тахтаси. Рус тилидан О.Шарофиддинов тарж. //Жаҳон адабиёти. 2004, февраль. – 112 б.
3. Сергунин А.А. Проблемы и возможности регионалистики // Полис. 1994. № 5. – С.149-150.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Марказий Осиё янги давр остонасида” номли мақоласи <https://president.uz/oz/lists/view/8653>
5. Толипов Ф. Теория и практика интеграции и Центральной Азии. <http://www://analiticaphp.story>
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Самарқанд шаҳрида ўтган “Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик” мавзусидаги халқаро конференцияда сўзлаган нутқи. <https://president.uz/uz/lists/view/1227>
7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармони 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси.
8. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2022. – Б. 19.
9. Қаххорова М. ва бошқалар. Маҳалла ва оилада ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 2021. – Б.102; Қаххорова М.М. Жамиятда маънавий-ахлоқий муҳит: муаммо ва ечимлар. Фалс. фан. док. ... дис автореф. – Тошкент. ЎзМУ, 2012.
10. Каримов И.А. Юсак маънавият-енгилмас куч. – Тошкент: “Маънавият”, 2008. – Б. 3-4.
11. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 10-11 ноябрь кунлари Самарқанд шаҳрида ўтказилган “Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик” мавзусидаги халқаро конференцияда сўзлаган нутқи. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-sama-10-11-2017>
12. Хайдаралиев Ш.А. Марказий осий минтақасида хавфсизлик ва барқарорликни таъминлашда халқаро ташкилотлар ва Ўзбекистоннинг ўрни (1991-2010-йиллар). 07.00.01 – Ўзбекистон тарихи ихтисослигидан тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертацияси. – Тошкент, 2012.
13. Каримов И.А. Туркистон умумий уйимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. –Б.20.
14. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Марказий Осиё янги давр остонасида” номли мақоласи <https://president.uz/oz/lists/view/8653>

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000